

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**
II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani
**TURLI SELEKSIYAGA MANSUB GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLARNI
OZIQAGA BO‘LGAN TALABI**

Karimov Sh.A

TDMAU, q.x.f.n., dotsent

Shaydilova G.

TDMAU, magistranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishi dolzarb masalaga bag’ishlangan bo’lib, mamlakatimizning janubiy hududiga xorijdan import qilinayotgan turli seleksiyaga mansub golshtin zotli qoramollarning ozuqaga bo’lgan talabi o’rganilgan.

Kalit so’zlar; Ozuqa, koeffitsient, ratsion, laktatsiya, seleksiya, protein, ozuqa birligi, to’yimli, sutdorlik koeffitsienti, zot, mahsuldorlik

Аннотация. Данная научно-исследовательская работа посвящена актуальной теме – изучению потребности в кормах голштинского скота различных пород, завезенного из-за рубежа в южный регион нашей страны.

Ключевые слова: Корм, коэффициент, рацион, лактация, селекция, протеин, кормовая единица, питательность, коэффициент удоя, порода, продуктивность.

Abstract. This research work is devoted to a topical issue, studying the feed requirements of Holstein cattle of various breeds imported from abroad to the southern region of our country.

Keywords: Feed, coefficient, ration, lactation, selection, protein, feed unit, nutritious, milk yield coefficient, breed, productivity

Mavzuning dolzarbligi. Sigirlarning irsiy imkoniyatini yuzaga chiqarishda, ularning nasldorligini, sut mahsuldorligini, pushtdorlik xususiyatini takomillashtirishda va yuqori mahsuldor podalar yaratishda, oziqlantirish omili, uning darajasi, to’la qiymatli bo’lishi yetakchi o’rin tutadi. Yuqori mahsuldor sigirlar organizmida modda almashinuv jarayonlari faol kechadi, sut hosil bo’lishi uchun

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

ko‘p miqdorda energiya va to‘yimli moddalar sarflanib, barcha organlar yuqori darajada faoliyat ko‘rsatadi. Shu sababli ularning ozuqalar tarkibidagi to‘yimli moddalarga bo‘lgan ehtiyoji juda yuqori, bu esa sigirlarni to‘la qiymatli oziqlantirishni taqoza qiladi.

Sigirlarni me‘yor asosida oziqlantirish uchun xo‘jalik mustahkam ozuqa bazasiga ega bo‘lishi va zahira qilingan ozuqalarning sifati to‘yimlilik yuqori bo‘lishi zarur. Bu esa bizning tajriba xo‘jaligimizda jamg‘arilgan ozuqalardan samarali foydalanish bilan bir qatorda sigirlarning xo‘jalik foydali belgilaridan ham to‘g‘ri foydalaniladi.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Turli seleksiyaga mansub sigirlarning sut mahsuldorligini o‘rganishda tajriba uchun o‘xshashlik belgilari talablari asosida kelib chiqishi, zoti va zotdorligi, tirik vazni, sutdorlik koeffitsienti, yoshini hisobga olgan holda quyidagi uchta Germaniya (I guruh), Polsha (II guruh), Belorussiya(III guruh) seleksiyaga mansub 3 guruhda yetuk yoshdagi golshtin zotli sigirlar tanlab olindi.

Xo‘jalikda sigirlarni oziqlantirishda asosan o‘zida yetishtirilgan ozuqalar bilan xususan, beda pichani, bug‘doy somoni, beda senaji, makkajo‘xori silosi, xashaki lavlagi va sholg‘om hamda omuxta yemdan foydalanilmoqda. Dastlab ushbu ozuqalarning kimyoviy tarkibini A.P.Kalashnikov ma‘lumotlari bo‘yicha organoleptik bahosi bilan tanishib, shu asosida xo‘jalikda tuzilgan ratsionlarni o‘rganib chiqdik. (1-jadval).

Sigirlarning mahsuldorligi bo‘yicha irsiy imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishda tashqi muhit omillari muhim o‘rin egallaydi. Bu omillardan eng asosiysi sigirlarni to‘la qiymatli oziqlantirish hisoblanadi.

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**
II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

1-jadval

*“Navro`z-naslchilik” chorvachilik majmuasida sog‘in sigirlarni oziqlantirish
ratsioni*

Ozuqa turlari	Ozuqa miqdori, kg	Ozuqa birligi	Almashinuv energiyasi, MDj	Quruq modda, kg	Hazmlanuvchi protein, g	Qand, g	Kalsiy, g (Sa)	Fosfor, g (R)	Karotin, mg
Beda pichani	2	0,8	13,4	1,66	202,0	40,0	34,0	4,4	98,0
Somon	2	0,4	9,5	1,75	10,0	6,0	5,6	1,6	8,0
Senaj	8	2,6	33,5	3,60	268,0	152,0	87,2	8,0	320,0
Silos	25	5,0	57,5	6,25	350,0	150,0	35,0	10,0	500,0
Xashaki lavlagi va sholg‘om	6	1,0	6,8	0,60	36,0	488,0	3,0	2,4	0,0
Omuxta yem	5	3,8	44,3	4,25	485,0	235,0	10,0	48,0	13,0
Osh tuzi	0,15	0,0	0,0	0,00	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Jami	x	13,5	165,0	18,1	1351,0	1071,0	174,8	74,4	939,0

Quyidagi 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, xo‘jalikda tuzilgan ratsion, sigirlarning kunlik to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabini qondira oladi. Ratsion tarkibidagi to‘yimli moddalarning bir biriga bo‘lgan nisbatlari doimiy ravishda nazorat qilib borildi. Chunki, ularning organizmda foydali energiyaga aylanishi uchun, ikkinchi bir moddaning me’yorda bo‘lishi talab qilinadi. Jumladan, ozuqalar tarkibidagi proteinni organizmda foydali energiyaga aylanishi va hayvonlar oshqozonidagi mikroorganizmlarning faoliyati uchun ratsion tarkibida qand moddasi ham yetarli bo‘lishi talab etiladi.

A.P.Kalashnikov va boshqalar (1985) ma’lumotlarida, sigirlar ratsionida qand-protein nisbati 0.8:1 yoki 1:1 nisbatda bo‘lishi kerak.

Xo‘jalikda tuzilgan ratsionda ozuqalar tarkibidagi umumiy hazmlanuvchi protein 1351 g ni tashkil etayotgan bo‘lsa, umumiy qand miqdori 1071 g ga teng bo‘lib, bu ratsionda qand-protein nisbati 0.8:1.0 ni tashkil qiladi. Shuningdek, organizmda kalsiy va fosforning o‘zaro nisbati ham nazoratga olinishi muhim

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

hisoblanadi. Ularni ratsiondagi nisbati 2:1 dan 1.2:1 gacha bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bu nisbatning ratsionda buzilishi yoki surunkali yetishmovchilik natijasida, hayvon organizmida turli salbiy oqibatlar paydo bo‘ladi. Xo‘jalikda tuzilgan ratsion tarkibida bu nisbat 4:1 ni tashkil qiladi. Bu esa sigirlarning ozuqa ratsioniga qo‘shimcha makro va mikro elementlar qo‘shib berishni taqozo qiladi.

Biz turli seleksiyaga mansub bo‘lgan III va undan yuqori laktatsiyadagi sigirlarning laktatsiya davomida sarflangan ozuqalar miqdori va ularning to‘yimligini o‘rgandik, uning natijalari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Turli seleksiyaga mansub bo‘lgan sigirlarga (III va undan yuqori) laqtatsiya davomida sarflangan ozuqalar miqdori va ularning to‘yimligi (o‘rtacha bir boshga)

Ozuqalar nomi va ularning to‘yimligi	Guruhlar					
	I		II		III	
	Miqdori, kg	Ozuqa birligi	Miqdori, kg	Ozuqa birligi	Miqdori, kg	Ozuqa birligi
Beda pichani	605	266,2	576	253,4	587	258,3
Somon	590	118,0	562	112,4	572	114,4
Beda senaji	1180	377,6	1148	367,4	1145	366,4
Silos	5100	1020,0	4950	990,0	4947	989,4
Xashaki sholg‘om	880	149,6	850	144,5	854	145,2
Ko‘k massa	9500	1615,0	9152	1555,8	9215	1566,6
Omuxta yem	1525	1143,8	1525	1143,8	1525	1143,8
Ozuqalar to‘yimligi:						
Ozuqa birligi	-	4690,2	-	4567,3	-	4584,1
Almashinuvchi Quvvat, MDj	50331,5	-	49036,9	-	49228,2	-
Quruq modda, kg	4215,0	-	4069,4	-	4093,2	-
Xom protein, kg	854,4	-	832,5	-	835,8	-
Hazmlanuvchi protein, kg	569,6	-	554,7	-	557,0	-
Xom kletchatka, kg	1222,8	-	1183,1	-	1190,1	-
Qand, kg	432,8	-	423,6	-	425,0	-
Karotin, g	470,2	-	453,9	-	456,2	-

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

2-jadval ma’lumotlaridan ko’rinishicha, laktatsiya davomida eng ko’p ozuqalar miqdorini Germaniya seleksiyasiga mansub (I guruh) sigirlar iste’mol qildi. Jumladan, I guruhdagi sigirlar II va III guruhlardagi sigirlarga nisbatan tegishli ravishda 29 va 18 kg beda pichani, 28 va 18 kg bug’doy somoni, 32 va 35 kg beda senaji, 150 va 153 kg makkajo‘xori silosi, 348 va 285 kg ko‘k massa ko‘p iste’mol qildilar va omuxta yem bir xilda bo‘ldi, bu ozuqalarning to‘yimlilik qiymati tegishli 122,9 va 106,1 ozuqa birligiga yuqori bo‘ldi.

Germaniya seleksiyasiga mansub (I guruh) sigirlar iste’mol qilgan ozuqalarning to‘yimlilik qiymatining yuqoriligini ular tarkibidagi to‘yimli moddalar ham ko‘rsatadi. Masalan, I guruhdagi sigirlar iste’mol qilgan ozuqalar tarkibidagi almashinuvchi quvvati II va III guruhlardagi ozuqalar tarkibidagi ushbu ko‘rsatkichdan tegishli ravishda 1294,6 va 1104,3 MDJ, quruq modda 145,6 va 121,8 kg, xom protein 21,9 va 18,6 kg, hazmlanuvchi protein 14,9 va 12,6 kg, xom yog‘ 5,2 va 4,5 kg, xom kletchatka 39,7 va 32,7 kg, qand 9,2 va 7,8 kg hamda karotin 16,3 va 13,8 kg yuqori bo‘ldi.

Bu ma’lumotlarimiz N.R.Ro‘ziboyev (2012) tadqiqotlarida olingan natijalarga o‘xshashligi, bu esa mualliflarning fikricha sigirlarga laktatsiya davomida ozuqalar sarfi va ularning to‘yimlilik darajasi sut mahsuldorligi bilan uzviy ravishda bog‘liq degan xulosaga kelganlar.

Bizning tadqiqotlarimizda Germaniya seleksiyasiga mansub (I guruh) sigirlarda har bir ozuqa birligiga 121,4 g, Polsha seleksiyasiga mansub (II guruh) sigirlarda 121,5 g va Belarussiya seleksiyasiga mansub (III guruh) sigirlarda 121,6 g hazmlanadigan protein sarflandi va bu natijalarimiz Hamraqulov R., Kariboyev K (1999) sog‘in sigirlarga tavsiya etgan me’yorlarga mos keladi.

3-jadvalda turli seleksiyaga mansub sigirlarni xo‘jalikda tuzilgan oziqlantirish ratsioni tarkibi keltirildi.

3-jadval

*Turli seleksiyaga mansub sigirlar ratsioni tarkibi
(ozuqalarning to‘yimligiga nisbatan foiz hisobida)*

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
 TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
 II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Ozuqalar	Guruhlar					
	I		II		III	
	Ozuqa birligi	%	Ozuqa birligi	%	Ozuqa birligi	%
Beda pichani	266,2	5,7	253,4	5,5	258,3	5,6
Somon	118,0	2,5	112,4	2,5	114,4	2,5
Beda senaj	377,6	8,1	367,4	8,0	366,4	8,0
Silos	1020,0	21,7	990,0	21,7	989,4	21,5
Xashaki sholg‘om	149,6	3,2	144,5	3,2	145,2	3,2
Ko‘k massa	1615,0	33,8	1555,8	34,1	1566,6	34,2
Omuxta yem	1143,8	25,0	1143,8	25,0	1143,8	25,0
Jami	4690,2	100,0	4567,3	100,0	4584,1	100,0

3- jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatdiki, o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda iste’mol qilgan ozuqasining turi ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Germaniya seleksiyasiga mansub (I guruh) sigirlarda shirali ozuqalar 33,0 foizni (1547,8 ozuqa birligi), ko‘k massa 33,8 foizni (1615,0 ozuqa birligi) dag‘al ozuqalar 8,2 foizini (384,2 ozuqa birligi) va 25,0 foizni (1143,8 ozuqa birligi) kuchli ozuqalar tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar Polsha va Belarussiya seleksiyasiga mansub (II va III guruh) sigirlarda tegishlicha 32,8% (1501,9 ozuqa birligi), 32,7% (1501 ozuqa birligi), 34,1 (1555,8 ozuqa birligi), 34,2% (1566,6 ozuqa birligi), 8,0% (365,8 ozuqa birligi), 8,1% (372,7 ozuqa birligi) va kuchli ozuqalar ikkita guruhda bir xilda ya’ni 25% ni (1143,8 ozuqa birligidan) tashkil qildi.

Xulosa. Ko‘rsatilgan bu ma’lumotlar yilning fasllarida va sigirlarning laktatsiyasi davomida o‘zgarib turgan. Xususan yilning bahor va yoz oylarida ko‘k ozuqalar (ko‘k beda, ko‘k raps, ko‘k suli va ko‘k makkajo‘xori), kuz va qish oylarida esa shirali (silos, senaj, xashaki lavlagi) va dag‘al ozuqalar (beda pichani, bug‘doy somoni) hamda barcha fasllarda sigirlarning mahsuldorligi bo‘yicha kuchli ozuqalar (omuxta yem, yarma) ratsionning asosiy qismini tashkil qilgan.

Shunday qilib, turli seleksiyaga mansub sigirlarning laktatsiya davomida

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

yuqori to‘yimlilik qiymatiga ega ozuqalardan tajriba davomida belgilangan ratsion asosida to‘liq iste‘mol qildilar. Bu esa ularning yuqori sut mahsuldorligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli qarori. Toshkent 2017-yil.

2.Mirziyoyev Sh.M. “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4576-sonli qarori 29-yanvar 2020-yil.

3.Mirziyoyev Sh.M. “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-121-sonli qarori 8-fevral 2022-yil.

4.Ashirov M.I., Ashirov B.M., Yuldashev A.A. Razvedenie golshtinskogo skota v Uzbekistane. //Tashkent. 2020 g., izdatelstvo “Navro‘z”. s. 264.

5.Ibadullayeva A., Seytmusayeva Z., Aknazarov D., Bazarbayev R., Turdimuratova G., Jumabayev B., Taumuratova M. Turli laktatsiyalardagi golshtin zotli sigirlarning sut mahsuldorligi dinamikasi. //J. “Chorvachilik va naslchilik ishi”. 2021 y., №6, (23), 15-17 b.

6.Ro‘ziboyev N.R., Ashirov M.E. Aralashma tipda oziqlantirilgan sigirlarning sut mahsuldorligi va sutdorlik koeffitsenti. //J. “Zooveterinariya”. jurnali, №11, 2013 y., 29-30 b.

7.Hamraqulov R., Karibayev K. Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish. T., 1999, 136-167 b.